

**PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKSIZ ONALIKNING FARZAND TARBIYASIGDAGI
XATOLARI****Amanullayeva Umida Botirjon qizi**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti I bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18194505>

Annotatsiya. Maqolada psixologik tayyorgarliksiz onalikning farzand tarbiyasida yuzaga keltiradigan xatolari empirik va nazariy tahlil asosida yoritiladi. So'rovnom natijalari onalik tasavvurlarining asosan oilaviy tajriba va hissiy omillar ta'sirida shakllanishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari E. Bernning transaksion tahlil nazariyasi asosida izohlanadi hamda onalik biologik instinkt bilangina cheklanmay, psixologik va ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: onalik, psixologik tayyorgarlik, farzand tarbiyasi, transaksion tahlil, ota-onaga ego-holatlari, erta onalik, tarbiya xatolari, onalik identifikatsiyasi, oilaviy munosabatlar.

Аннотация. В статье рассматриваются ошибки воспитания детей, возникающие вследствие психологической неподготовленности к материнству, на основе эмпирического и теоретического анализа. Результаты опроса показывают, что представления о материнстве формируются преимущественно под влиянием семейного опыта и эмоциональных факторов. Полученные данные интерпретируются с позиций транзактного анализа Э. Берна, при этом материнство рассматривается как психологический и социальный процесс, а не только как биологический инстинкт.

Ключевые слова: Материнство, психологическая подготовка, воспитание детей, транзакционный анализ, эго-состояния родителя, раннее материнство, ошибки воспитания, материнская идентичность, семейные отношения.

Abstract. The article examines parenting mistakes arising from psychological unpreparedness for motherhood based on empirical and theoretical analysis. Survey results indicate that perceptions of motherhood are primarily shaped by family experience and emotional factors. The findings are interpreted through Eric Berne's transactional analysis, viewing motherhood as a psychological and social process rather than solely a biological instinct.

Key words: motherhood, psychological preparedness, child-rearing, transactional analysis, parental ego states, early motherhood, parenting errors, maternal identity, family relationships.

2025-yil 6-oktyabrda Kun.uz tomonidan berilgan xabarlarga ko'ra, O'zbekistonda yosh onalar soni ortgan. Yurtimizda 20 yoshgacha ona bo'lgan qizlar soni yil sayin ko'paymoqda. Bu holat ko'pincha "an'ana" sifatida qabul qilinsa-da, amalda sog'liqqa xavf, ta'limdan uzilish, iqtisodiy qiyinchilik va ruhiy fojialarga olib keladi. Erta onalik nafaqat ayolning, balki butun jamiyatning kelajagiga ta'sir ko'rsatadi.¹ Savol tug'iladi; yuqorida aytilgan yosh qizlar "onalikka" qanchalik tayyor edi? O'zidan tug'ilajak farzandlarini qay darajada tarbiya qila olishi mumkin? Ta'lim-tarbiya tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilgan, yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya bergan yurtlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari boshqa davlatlarnikidan ko'ra kamroq.²

Muammo ham tarbiya, yechim ham tarbiya. Aynan shuning uchun ham, ayol shaxsi ham oilada, ham jamiyatda yetakchi o'rin tutishi uchun bugungi kunda turli sharoitlar yaratilyapti.

¹ Kun.uz. Yana bir og'ir statistika: yosh onalar soni ortishi jamiyat uchun xavfli signal. – 2025-yil, 06-oktabr.

² Chamlija S. Farzand tarbiyasida o'ttiz uch xato. – Toshkent: Zumar books, 2023. – 76-77 b.

Prezidentning “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab respublikadagi barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta’lim shaklida xotin-qizlar to‘lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda ta’lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga davlat budjetidan mablag‘ ajratish yangi tizimi joriy etilgan.³ Yuqorida aytib o‘tilgan muammoning amaliy ko‘rinishini aniqlash maqsadida 2025-yil dekabr oyida 18–30 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchi-talaba qizlar va yosh kelinlar o‘rtasida onlayn shaklda anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 85 nafar respondent ishtirok etdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilarning onalik haqidagi asosiy tasavvurlari asosan oila muhiti va onaning shaxsiy namunasi asosida shakllangan. Onalik haqida umumiy tushuncha mavjud bo‘lsa-da, bu tasavvurlar ko‘proq hayotiy kuzatishlarga tayangan bo‘lib, ilmiy-psixologik yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Maktab va psixologik xizmatlar faoliyatining tizimli darajasi juda past ekanligi aniqlangan. Qo‘shimcha kuzatuv natijalariga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘tkazilgan anonim so‘rovda (64 nafar ishtirokchi) respondentlarning 44 foizi bolalikda xato qilganida ona tomonidan keskin tanbeh berilganini, 9 foizi esa jismoniy jazo qo‘llanganini bildirgan. Faqat 27 foiz ishtirokchi xatolari tinch va izchil tarzda tushuntirilganini ta’kidlagan. Ushbu ko‘rsatkichlar oiladagi tarbiya uslubi va qizlarning kelajakdagi onalik tasavvurlari o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Olingan empirik ma’lumotlar E. Bern tomonidan ishlab chiqilgan transaksion tahlil nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, respondentlarning onalik haqidagi tasavvurlarida asosan “Roditelskaya” va “Bola” ego-holatlarining ustunligi kuzatiladi. Xususan, bolalik davrida keskin tanbeh va jismoniy jazo bilan tarbiyalangan qizlarda onalik modeli ko‘proq avtoritar yoki hissiy reaktiv shaklda shakllanmoqda. Bu holat kelajakda farzand bilan munosabatlarda ongli va tahliliy (“Katta”) pozitsiyaning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Psixologik tayyorgarlikning yetishmasligi natijasida onalik roli ko‘pincha avtomatik ravishda avloddan-avlodga ko‘chirilayotgan tarbiya stereotiplari asosida amalga oshirilmoqda.⁴

Onalik biologik va psixologik jarayon. Psixologik tadqiqotlar “onalik identifikatsiyasi” (maternal identity) tushunchasini faqat tug‘ruqdan keyin emas, balki homiladorlik jarayonidan boshlab shakllana boshlaydigan o‘tish jarayoni sifatida ko‘rib chiqadi. Bu kontseptda onalik — ayolning o‘zini “ona” deb qabul qilishi, yangi rolni ichki qabul qilish va psixologik moslashish jarayoni — homiladorlikdan boshlab tug‘ilish va postnatal davrgacha uzluksiz davom etadi.

Ma’lumki, bu jarayon homiladorlik davomida ayolning o‘zini yangi rol — ona — sifatida tasavvur qilishidan boshlanadi va tug‘ruqdan keyin ham davom etadi.⁵ Bazi izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, onalik xatti-harakatlari faqat genetik instinktga asoslanmaydi; balki u motivatsion, biologik, nevropsixologik va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri natijasidir. Bu degani onaning bola bilan tayanadigan hissiy va parvarish instinktlarini shakllantirishda: biologik mexanizmlar (garmonlar), motivatsion omillar (sevgi, g‘amxo‘rlik), individual tajriba.⁶ 2018 yil bolalar va o‘smirlar psixotriyasi dotsenti, 2016 yilda Yevropa psixotriya asotsatsiyasi tomonidan “Eng

³ Kun.uz. Shavkat Mirziyoyev xotin-qizlarga imtiyozli ta’lim kreditlari ajratish to‘g‘risidagi qarorni imzoladi, 19.07.2022. URL: <https://kun.uz/98267739> (murojaat qilingan: 09.12.2025).

⁴ Farxodova N. D. Transakt tahlilining ahamiyati va qo‘llanilishi // Ilm-fan xabarnomasi (Science Bulletin). — 2025. — 7-jild, 2-son. — ISSN 3030-3931.

⁵ Concept analysis of transition to motherhood: a methodological study, Korean Journal of Women Health Nursing, 2022 Mar 23;28(1):8–17. Doi: 10.4069/kjwhn.2022.01.04

⁶ Conceptualizing motherhood, instinct or behavior? Multidisciplinary thematic review (maternal behavior and instinct).

yaxshi tadqiqotchi” mukofoti bilan sovrindori, olim – turkiyalik doktor Veysi Cheri bolalik davridagi boshdan kechirilgan ijobiy va salbiy holatlarning uzoq muddatli ta’siri xususida tadqiqotlar olib boradi. Uning fikriga ko’ra, yangi tadqiqotlar bola rivojlanishi tug’ruqdan keyin emas, balki onaning bolalik yillariga borib taqalishini aytadi. Sog’lom bolani voyage yetkazish jismonan va ruhan barkamol, yetarlicha bilimli hamda to’g’ri ovqatlanadigan qizlarni tarbiyalashdan boshlanadi deyish mumkin. Onaning ham psixologik ham biologik holati, sog’lom turmush tarzi farzandlarida aks etadi.⁷

Albatta har bir ota-ona farzandini yetuk, komil inson bo’lishini istaydi. Biroq farzand istaganimizdek emas, tarbiyalaganimizdek bo’ladi. Ko’p hollarda ota-onalar bola-ku, hali tushunmaydi deb o’ylashadi. Bola – mohir taqlidchi ekanini esa unutadilar. Bazan guvohi bo’lamiz: “Yosh bola o’zi katta bo’laveradi. Katta bo’lganda o’rgataman” kabi gaplarga. Biroq bolaning dastlabki olti yili bola va ota-ona uchun muhim vaqt hisoblanadi. Bola ko’p savol berishi tabiiy. Muhimi, ota-ona bolaning savollariga

yoshi va qarashlarini inobatga olib, munosib javob bera olishidir. Bazi ota-onalarning bunga sabri yetmay, farzandlarini ortiqcha savol berganlikda, ko’p gapirganliklari uchun koyib berishadi. Bolalar qiziquvchan bo’lishadi. Bolalikda qanchalik qiziquvchan bo’lsa, ulg’aygach katta-katta masofalarni ko’zlaydigan bo’ladi. “Daho” va “Lider” deganimiz insonlardagi mushtarak xususiyatlardan biri qiziquvchanlikdir⁸. Aksariyat bola tarbiyasida ota-onamizdan o’rganganlarimizga tayanamiz. Afsuski, yuz yildan ko’proq vaqtdan beri jamiyatimizda noto’g’ri “tarbiya” hukmron. Bolani kaltaklab turish, oilada kimdandir qo’rqishi kerak degan fikrlar jamiyatimizda yo’q emas. Bolani kaltaklash – chorasizlik! Chorasizlik ilmsizlikdandir. Farzandni o’yingaroqligi va sho’xligi bilan qanday kurashishni bilmagan kishining ilmsizlik alamini bolasidan olishga haqqi yo’q. Kaltak bolani yo surbet qiladi, yoki yolg’onchi. Ursang eti, so’ksang beti qotar, degan gap bejiz emas. Texnologiya rivojlangan bir paytda esa, ota-onalar farzandlarini “tarbiyalash” maqsadida tanbeh beradilar. “Biz bolaligimizda unday edik, bunday edik. Bolaligimiz qayda qoldi?!” degan iddaolarga ko’p guvoh bo’lamiz. Bas, bizning bolalik davrimiz o’z davrida, o’tmishda qoldi. Zamonaviy ota-ona kabi, bolalarni o’zimiz ulg’aygan zamon talablariga ko’ra emas, ular yashayotgan davr talablariga ko’ra tarbiyalamog’imiz kerak.⁹

Olima Odinaxon Muhammad Sodiqli Kun.uz (OAV) bilan suhbatda shariatda farzand tarbiyalash va ko’p uchraydigan xatolar haqida ma’lumot berdi. Oila qurishdan maqsad iffatni saqlash hamda nasl qoldirishdir. Zurriyot so’rashdan maqsad – kelajakda o’z ortidan solih bandani qoldirishdir. Ko’pincha shu maqsadni qo’yishda ham xato qilinadi. Ota-ona farzand kutayotgan bo’lsa, bu bilan maqtanish, ko’z-ko’z qilish holatlari uchraydi. Bundan imkon qadar chetlanish lozim. Farzand tilaganda “xizmatimizni qilsin, rohatini ko’raylik” deb niyat qilishadi.

Niyatda solih farzand so’ralishining o’zi yetarli. Solih farzand tufayli ota-ona barcha yaxshiliklarga yetishi mumkin. Zurriyot so’rashda ayni shu tomoniga urg’u berish kerak. Ota-ona oldidagi muhim burch – farzandga go’zal tarbiya berish, chiroyli xulq-atvorli etib voyaga yetkazish. “Ota-ona bolasiga berishi mumkin bo’lgan eng go’zal tortiq – go’zal tarbiyadir”, deb marhamat qiladi payg’ambarimiz.

⁷ Veysi Cheri. Munosib ota-ona bo’lish – saodat. Yangi asr avlodi. — Toshkent, 2022. — ISBN 978-9943-8590-7-4. — 24 b.

⁸ Chamlija S. Farzand tarbiyasida o’ttiz uch xato. — Toshkent: Zumar books, 2023. — 49-51 b.

⁹ Chamlija S. Farzand tarbiyasida o’ttiz uch xato. — Toshkent: Zumar books, 2023. — 29-91 b.

Avvalo, ota-ona o'zlari shaxsiy namuna bo'lishlari kerak. Chunki bola uyida ko'rganini qiladi. Ularning tarbiyasi go'zal va mukammal bo'lishi uchun ota-onaning tarbiyasi shunday bo'lmog'i lozim.¹⁰

Xulosa. Maqolada onalikning shakllanishi va uning farzand tarbiyasidagi ahamiyati psixologik hamda empirik tahlil asosida o'rganildi. So'rovnoma natijalari onalik haqidagi tasavvurlar asosan bolalik davrida, oila muhiti va onaning shaxsiy namunasi ta'sirida shakllanishini ko'rsatdi. Psixologik tayyorgarlik va ilmiy bilimlarning yetishmasligi onalik rolini stereotipik tarzda qabul qilishga olib kelmoqda.

E. Bernning transaksion tahlil nazariyasi asosida respondentlarda "Ota-ona" va "Bola" ego-holatlarining ustunligi aniqlanib, bu holat farzand bilan munosabatlarda hissiy reaktivlik va ongli ("Katta") pozitsiyaning yetarli shakllanmasligiga sabab bo'lishi mumkinligi qayd etildi.

Nazariy tahlillar onalikni biologik jarayondan ko'ra, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanuvchi murakkab jarayon sifatida talqin qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Chamlija S. Farzand tarbiyasida o'ttiz uch xato. - Toshkent: Zumar Books, 2023. - 29–91 b.
2. Chamlija S. Farzand tarbiyasida o'ttiz uch xato. - Toshkent: Zumar Books, 2023. - 49–51 b.
3. Chamlija S. Farzand tarbiyasida o'ttiz uch xato. - Toshkent: Zumar Books, 2023. - 76–77 b.
4. Concept analysis of transition to motherhood: a methodological study // Korean Journal of Women Health Nursing. — 2022. — Vol. 28, No. 1. — P. 8–17. — DOI: 10.4069/kjwhn.2022.01.04.
5. Conceptualizing motherhood: instinct or behavior? Multidisciplinary thematic review (maternal behavior and instinct).
6. Farxodova N. D. Transakt tahlilining ahamiyati va qo'llanilishi // Ilm-fan xabarnomasi (Science Bulletin). — 2025. — 7-jild, 2-son. — ISSN 3030-3931.
7. Kun.uz. Shavkat Mirziyoyev xotin-qizlarga imtiyozli ta'lim kreditlari ajratish to'g'risidagi qarorni imzoladi. — 19.07.2022. — URL: <https://kun.uz/98267739> (murojaat qilingan sana: 09.12.2025).
8. Kun.uz. Yana bir og'ir statistika: yosh onalar soni ortishi jamiyat uchun xavfli signal. — 06.10.2025.
9. Muhammad Sodiq O. Farzand tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xatolar: Kun.uz bilan suhbat. — 19.02.2022. — URL: <https://kun.uz/11988940>.
10. Veysi Cheri. Munosib ota-ona bo'lish – saodat. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. — 24 b. — ISBN 978-9943-8590-7-4.

¹⁰ Muhammad Sodiq O. Farzand tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xatolar: Kun.uz bilan suhbat. — 19.02.2022. — <https://kun.uz/11988940>